



**“OLIY TA’LIM MAZMUNIGA
ZAMONAVIY YONDASHUVLAR”
mavzusida ilmiy-nazariy anjuman
MATERIALLARI**



ma'rifiy sohalardagi bilimlarini inobatga olish zarur. Chunki ular jamiyat hayoti va taraqqiyotining asosini tashkil etadi.

Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagи nutqida "Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo'ladi. Chunki bugungi O'zbekiston – kechagi O'zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas", deb ta'kidlab o'tdilar.

Bugun yurtimiz haqida fikr yuritilganda "Yangi O'zbekiston", "Taraqqiyotning yangi bosqichiga kirib borayotgan mamlakat" kabi iboralar ishlatalayapti. Bu qo'lga kiritayotgan ulkan muvaffaqiyatlarimizning amaliy samarasi desak mubolag'a bo'lmaydi. Demak, tiklanishlarimiz yuksalishlarga yo'l ochmoqda. Mamlakatimizda yangi davrning poydevori bo'lmish juda keng miqyosdagi yangicha sifat va qudratga ega zamonaviy innovatsion tizimlarni yaratish jarayonlari davom etmoqda. Davlat rahbarimiz nazarda tutgan Uchinchi renessans - mamlakatimizda ilm-fan taraqqiyotining, iqtisodiyot va jamiyatning, xalqqa xizmat qilish va kishilarni rozi qilishday ezgu niyat bilan amalgalashirayotgan barcha yutuqlar – kishilariimz va yoshlarimiz aqlu zakovatining, iqtidor va iste'dod quvvatining yorqin tantanasi bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbekiston yoshlar forumi"da so'zlagan nutqi. 25.12.2020
2. Ortiqov N. Ma'naviyat: milliy va umuminsoniy qadriyatlar. -T.: O'zbekiston, 1997. –127 b
3. Ibrohimov A, Sultonov X, Jo'raev N. Vatan tuyg'usi T.: O'zbekiston, 1996.-396b.
4. Komilov N. Tafakkur karvonlari.T.: Ma'naviyat, 1999.-279 b.

YANGI O'ZBEKISTONDA BO'LAJAK MUTAXASSISLAR KREATIV QOBILIYATINI TARBIYALASHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI

Samiyeva Sh.X. – Buxoro davlat universiteti dotsenti

Saidova Malika Erkin qizi – 4-2 PPS-20 guruh talabadi

Yangi O'zbekistonda amalgalashirayotgan qator o'zgarishlar xalqimiz faravon hayat kechirishi va faol ijodiy mehnat qilishi uchun munosib shart-sharoit yaratish imkonini qo'lga kiritmoqda. Respublikamiz ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyoti hayotimizning barcha jabhalarida, xususan oliy ta'lim sohasida ham katta o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Yangi O'zbekistonda sog'lom, barkamol

avlodni voyaga yetkazish muhim va ustuvor vazifaga aylandi, rivojlanayotgan jamiyatimizning o’z oldiga qo’yan oljanob maqsadi – kelajagi buyuk davlatni barpo etish vazifasi shuni taqozo etadi. Darhaqiqat, davlatimizning bosh maqsadi ham keljak avlodning istiqbolini ta’minalashga, zarur shart-sharoit yaratishga, ularni yetuk insonlar qilib tarbiyalashga qaratilgan.

Jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy yangilanishining muhim subektlaridan bo’lib, turmushida ro’y berayotgan jarayonlarga o’z ta’sirini o’tkazadi va taraqqiyotni harakatga keltirishda muhim rol o’ynaydi, ularning ushbu mas’uliyatli vazifani bajarishlari va erkin rivojlanishlari, ijodiy bunyodkorlik faoliyatini amalga oshirishlari uchun Yangi O’zbekistonda qulay imkoniyatlar yaratilgan va bu borada katta amaliy ishlar qilinmoqda.

Mamlakatimizning ertangi kuni qanday bo’lishi yoshlarning har tomonlama salohiyati va yetukligiga bog’liq. O’zbekistonning keljakda buyuk davlatga aylanishi, mustaqilligimizning taqdiri, milliy istiqlolimizning taqdiri - yosh avlodlarimizning kuch-g’ayratli, aql-idrokli, yetuk, bilimdon, amaliy tayyorgarlikka ega bo’lishiga aqliy, jismoniy, ma’naviy-madaniy kamolotga erishuviga bog’liqdir.

Qayd etish lozimki, Prezidentimiz ilgari surgan “Inson qadri uchun” g’oyasi, shuningdek, Yangi O’zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning bosh tamoyili bo’lgan “Inson – jamiyat – davlat” degan yondashuvni Konstitutsiyamizning mazmuniga chuqur singdirish “O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o’zgartish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasini yaratishning ustuvor vazifasiga aylandi.

Ushbu maqsad va vazifalarni ro’yobga chiqarishda malakali mutaxassis kadrlar shaksiz hal qiluvchi rol o’ynaydi. Inson omilining kuchi va ta’siri eng avvalo yuksak ma’naviyat, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanish darjasini aholining bilimdonlik mavqeい bilan belgilanadi, shuning uchun ham malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash, ulardan jamiyatimizning turli jabhalarida oqilona foydalanish masalasiga katta ahamiyat berilmoqda.

Hozirgi globallashuv zamonda pedagogik dolzarb muammolarga va vazifalarga fan, texnika, yangi texnologiya yutuqlaridan foydalanish asosida shaxsni tarbiyalash, o’qitish va rivojlantirish maqsadlari, mazmuni, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarini ilmiy ta’minalash muhim masala sifatida qaralmoqda. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati uzlucksiz ta’lim tizimi orqali har tomonlama rivojlangan shaxs-fukaroning taraqqiy etishini ko’zda tutadi. U ushbu ta’lim tizimida va kadrlar tayyorlashda ta’lim xizmatlarining

iste'molchisi, buyurtmachisi sifatida va xuddi shunday ishlab chiqaruvchi sifatida ishtirok etadi.

Hozirgi davr ta'limni insonparvarlashtirish va ta'lim mazmunining mohiyatini shaxsga yo'naltirilgan yondashuvini maydonga olib chiqdi, bu yondashuv markazida shaxs turadi. Bunday yondashuv ta'lim mazmunini erkin tanlash imkoniyatini beradi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish jarayonida shaxsning ta'limiy, ma'naviy, madaniy va hayotiy talablari qondiriladi va ijodkorlik qobiliyati rivojlanadi. Eng muhimi shaxsga nisbatan insonparvarlik munosabati namoyon bo'ladi, madaniy-ta'limiy sharoitda o'qish induvalligi va mustaqil harakat qila olish imkoniyati shakllanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kreativ qobiliyatini yangi pedagogik texnologiya asosida rivojlantirishning nazariy va amaliy holatlarini o'rghanishda quyidagi asosiy tamoyillar muhim o'rin egallaydi.

- talaba-yoshlarni kasbiy-uslubiy jihatdan tayyorlashni insonparvarlashtirish;
- hozirgi zamon infarmatsion texnologiyalari sharoitida talabalar kreativ qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishga tizimli, faoliyat nuqtayi nazaridan va texnologik jihatdan yondoshish;
- talaba-yoshlarni kreativ qobiliyatini rivojlantirishda nazariy va amaliy bilimlar bilan qurollantirish
- talabalarni kreativ qobiliyatini rivojlantirishda ta'lim tizimining tarkibi va mazmunini kengaytirish hamda chuqurlashtirish.

Xulosa qilib aytganda, talaba-yoshlarda kreativ qobiliyatini rivojlantirishda yangi pedagogik texnologiya usullaridan keng foydalanish masalalari muhim sanaladi. Interaktiv metodlardan ta'lim jarayonida keng qo'llash ta'lim muvoffaqiyatligini ta'minlashda muhim omil bo'lib, ayniqsa ta'limning interaktiv usullari va shakllari hozirgi ta'limni zamon talablari asosida tashkil etishda muhim sanaladi. Ta'lim jarayonida o'qitishni pedagogik va innovatsion texnologiya asosida tashkil etishning asosiy vazifasi ta'lim mazmunini yangilashning uzlusiz tizimini ruyobga chikarishdan iborat. Bundagi bosh maqsad xar jixatdan rivojlangan barkamol shaxsni tarbiyalashdir.

Joriy 2023-yilning "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb e'lon qilinishi negizida ham ta'limning jamiyatning asosiy drayveri etib belgilanganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ilgari surayotgan ta'lim sohasiga oid islohotlar, ezgu tashabbuslar ijrosi barcha oliy ta'lim muassasalarida izchil davom ettirilmoqda.

Amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan Konstitutsiyaviy qonun loyihasida ta'lim olish huquqi va imkoniyati ham kengaytirilib, pedagoglar

konstitutsiyaviy maqomga ega bo'lishi yangi normalar bilan mustahkamlanmoqda. Jumladan, oliy ta'lif muassasalariga akademik erkinlik berilishi, tanlov asosida davlat hisobidan bepul oliy ma'lumot olinishi, nodavlat ta'lif tashkilotlari qo'llab-quvvatlanishi to'g'risidagi qoidalar yoshlar kelajagini yaxshilash, ularning kelajak buniyodkorlari bo'lishi, hayotda o'z o'rnini topishi va kamol topishi uchun keng imkoniyat yaratadi.

Alovida ta'kidlashni lozimki, yangilanayotgan Konstitutsiyada ta'lif sohasini rivojlantirish masalasi, shuningdek, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoyalash aniq va tiniq ifodalangani, huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilayotgani quvonarli, albatta. Yoshlarga shunday sharoitlar yaratilganligi, ularga yuksak g'amxo'rlik va qator imtiyozlardan ilhomlangan holda Vatanimiz taraqqiyoti uchun yetuk mutaxassislarga aylanib, tinimsiz mehnat qilishi va ishonchni oqlashiga ishonamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ortiqov N. Ma'naviyat: milliy va umuminsoniy qadriyatlar. -T.: O'zbekiston, 1997. –127 b
2. Ibrohimov A, Sultonov X, Jo'raev N. Vatan tuyg'usi T.: O'zbekiston, 1996.-396b.

3. Samiyeva S. ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ТВОРЧЕСКОГО МАСТЕРСТВА ПРЕПОДАВАТЕЛЬЕЙ ВЫСШЕЙ ШКОЛЫ //СЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (бухду. уз). – 2023. – Т. 31. – №. 31.

4. Ismoilova M. ИСПОЛЗОВАНИЕ ИНТЕГРИРОВАННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛНОМ ПРОЦЕССЕ: THE USE OF INTEGRATED TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS //SENTR NAUCHNYIX PUBLIKATSIY (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

5. Маджидова М. Х., Самиева III. X. Эстетическое мировоззрение как один из компонентов образования и воспитания //Молодые ученыe-развитию Национальной технологической инициативы (Поиск). – 2020. – №. 1. – С. 803-805.

TALABALARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA JAMOAT TASHKILOTLARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Homidov Husniddin Kupaysinovich

**Buxoro davlat universiteti “Pedagogika” kafedrasi katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

XXI asr globallashuv, taraqqiyot asri, faqat intellektual jihatdan yuksak rivojlangan davlatlargina dunyoda ustuvor mavqe egallaydigan davr bo'lishi

МУНДАРИЖА

| | |
|--|-----------|
| O.X.Хамидов. YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHNING MUHIM OMILLI..... | 4 |
| 1-SHO'BA. OLIY TA'LIMNING IJTIMOIY-FALSAFIY VA ANTROPOLOGIK ASOSLARI..... | 6 |
| Sh.Sh.Olimov. OLIY TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR: MUAMMO VA YECHIMLAR..... | 6 |
| B.R.Adizov. O'QITUVCHILARDA MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH OMILLAR..... | 7 |
| B.Q. Xodjayev. OLIY TA'LIM O'QITUVCHISI PEDAGOGIK MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM JIHATLARI..... | 9 |
| N.N. Musayeva. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МОДУЛНОГО ОБУЧЕНИЯ..... | 13 |
| N.E. Azimova. MOLIYAVIY MUSTAQIL OLIY TA'LIM MUASSASASI KELAJAGIMIZ POYDEVORIDIR..... | 17 |
| B.U. Jo'rayev. TALABALARNI VATANGA SADOQAT RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI..... | 21 |
| Sh.X. Samiyeva, M.E. Saidova. YANGI O'ZBEKISTONDA BO'LAJAK MUTAXASSISLAR KREATIV QOBILIYATINI TARBIYALASHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI..... | 25 |
| H.K. Homidov. TALABALARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA JAMOAT TASHKILOTLARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA..... | 29 |
| G'H. Jumaqulov. IQTIDORLI O'QUVChILAR INTELLEKTUAL SIFATLARINI TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI..... | 34 |
| | |
| 2-SHO'BA. OLIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YO'NALISHLARI | 37 |
| M.A. Jumayeva. BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KREATIV YONDASHUV ASOSIDA INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH..... | 37 |
| N.X. Aslanova. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI XALQARO BAHOLASH DASTURLARIGA TAYYORLASH MUAMMOLARI..... | 41 |
| Yu.A. Boynazarova. "OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI TEXNOLOGIYASI" TA'LIM YO'NALISHI FANLARINI O'QITISH JARAYONIDA DIFFERENTIAL YONDASHUV METODIKASINI TASHKIL ETISH..... | 43 |
| A. Bozorova, G.I. Sayfullayeva OLIY TA'LIM TIZIMIDA ASTRONOMIYA MASHG'ULOTLARINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH..... | 45 |